

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Logoepistema pretsedent fenomen sifatida.....	540
V.Xegay	
Intertekstual bosma sarlavhalarda oldingi matnlarni rasmiy ravishda yangilash	544
Y.Niyazova	
Chet tili sifatida ingliz tilida yozishni o'rgatishning ba'zi muammolari.....	548
Z.Tashtemirova, M.Kushmatova	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologik ekvivalentlar	552
Sh.Xashimova	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar.....	556
I.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	560
Sh.Nurmuradova	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uning tashkil etilishi	567
B.Xolmirzaev	
Tildagi tasviriy ifodalarning tarjimalarda aks etishi.....	573
A.Eshniyazova	
Zamonaviy qissa tabiati.....	578
R.Ibragimova	
Milliy udumlar – milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi mezondir	582
D.Xoshimova, M.Xusaynova	
Termin va terminologiyaning tarixiy tadriji va ular haqidagi ilmiy qarashlar	586
V.Sultanova	
O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik usullari	589
M.Xusenova, Sh.Zoitova	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigan xatoliklar (koreys tili misolida)	594
C.Samiyeva	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar	597
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarga xos leksik xususiyatlar, uning boshqa funksional uslubga xos matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari.....	601
FANIMIZ FIDOYILARI	
KARIMBERDI EGAMBERDIYEVICH ONARKULOV	605

DINIY MATNLARGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLAR, UNING BOSHQA FUNKSIONAL USLUBGA XOS MATNLAR BILAN O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ, ИХ СХОДСТВО И ОТЛИЧИЯ С ДРУГИМИ ФУНКЦИОНАЛЬНЫМИ СТИЛЕВЫМИ ТЕКСТАМИ

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF RELIGIOUS TEXTS, ITS SIMILARITIES AND DIFFERENCES WITH OTHER FUNCTIONAL STYLE TEXTS

Amonturdiyeva Shoira Ravshanovna¹¹Amonturdiyeva Shoira Ravshanovna

– Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsent v.b

Annotatsiya

Mazkur maqolada diniy matnlarning lingvistik tadqiqi, o'zbek tilida diniy uslub masalasi, uning o'zbek tili funksional uslublari tizimida tutgan o'rni, boshqa uslublar bilan o'xshash va farqli tomonlari haqida so'z boradi. O'zbek tilidagi mavjud nutq uslublari va diniy uslub o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlar aniq misollar orqali ochib beriladi. Shuningdek, diniy matnlarning lingvistik imkoniyatlari o'zbek tilining grammatik qoidalari asosida tahlilga tortiladi. Maqolada diniy matnlarga xos bo'lmagan leksik xususiyatlar ham sanab o'tiladi.

Аннотация

Данная статья посвящена лингвистическому изучению религиозных текстов, вопросу о религиозном стиле в узбекском языке, его месте в системе функциональных стилей узбекского языка, его сходствах и различиях с другими стилями. На конкретных примерах выявляются сходства и различия между существующими стилями речи и религиозным стилем в узбекском языке. Также анализируются лингвистические возможности религиозных текстов на основе грамматических правил узбекского языка. Также в статье перечислены лексические признаки, не свойственные религиозным текстам.

Abstract

This article deals with the linguistic study of religious texts, the issue of religious style in the Uzbek language, its place in the system of functional styles of the Uzbek language, and its similarities and differences with other styles. The similarities and differences between the existing speech styles and the religious style in the Uzbek language are revealed through concrete examples. Also, the linguistic possibilities of religious texts are analyzed based on the grammatical rules of the Uzbek language. The article also lists lexical features that are not characteristic of religious texts.

Kalit so'zlar: Diniy matnlarning lingvistik tadqiqi, O'zbek tilida diniy uslub, Funksional uslublar, Nutq uslublari, Uslublarning o'xshash va farqli tomonlari, Grammatik qoidalari asosida tahlil, Leksik xususiyatlar

Ключевые слова: Лингвистическое исследование религиозных текстов, Религиозный стиль в узбекском языке, Функциональные стили, Речевые стили, Сходства и различия стилей, Анализ на основе грамматических правил, Лексические признаки

Key words: Linguistic study of religious texts, Religious style in Uzbek, Functional styles, Speech styles, Similarities and differences of styles, Analysis based on grammatical rules, Lexical features

KIRISH

Diniy matnlarning (keyingi o'rinlarda DM) lingvistik tadqiqi, uning funksional aspekti o'zbek tilshunoslarini qiziqtirib kelgan. Jumladan, S.Muhamedov bu haqda quyidagilarni yozgan edi: «Biz tadqiqotimizga asos qilib olgan O'DMlar bir qator o'ziga xos xususiyatlari – lisoniy tabiati, mazmuni va mohiyati bilan bu matnlardan farqlanadi. Chunoni islom dinining muqaddas deb tanilgan asosiy kitobi Qur'onning saj' usulida yaratilganligi va unda islom dinining aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy axloqiy me'yorlari, cheklash hamda taqiqlari og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham til vositalari temaning talabi bilan chegaralanadi, muayyan tor ramkaga solinadi. Oldindan rejali ravishda tildagi leksik birliklar, grammatik konstruksiyalarning faqat mo'ljallangan tema uchun keraklilari tanlab olinadi.

So'zsiz, funksional stillarga xos og'zaki nutqda oddiy so'zlashuvga mansub til va nutq vositalari qo'llanishi mumkin. Ammo nutqning tema talabi bilan bajarayotgan funksiyasiga binoan til vositalari bari bir chegaralanishiga majbur bo'ladi. Masalan, ikki kishi bir-biri bilan ilmiy mavzuda suhbatlashar ekan, aniqki, ular ilmiy uslubga oid til vositalarini qo'llaydi».[1]

Darhaqiqat har bir matn o'ziga xos bo'lgan leksik-frazeologik, grammatik xususiyatlarga ega. Ular fikrni ifodalash uslubiga ko'ra ham bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fikr ifodalashda qisqalik, aniqlik, emotsional-ekspressiv so'zlarning bo'lmasligi, maxsus terminalogiyaning

«Qur'ondan keyingi muqaddas manba – hadislarda Muhammad payg'ambarimizning hayoti, faoliyati va ibratli ko'rsatmalari badiiy matnlarga xos rioya usulida berilganligi, umuman bu turkumdagi matnlarning mohiyat va mazmuni insonlarni ma'naviy yetuklikka va axloqiy poklikka chorlash kabi omillar diniy matnlarning badiiy matnlarga xos xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Biroq diniy matnlarni to'liq badiiy matnlar turkumiga kiritib bo'lmaydi, chunki din – bu olamning yaratilishini tasavvur qilishining alohida uslubi, uni idrok etish usuli bo'lib, shu nuqtai nazardan diniy matnlar ilmiy xarakterga ham ega. Shuningdek, din jamiyatimizni tubdan qayta qurishga, uni demokratiyalashtirishga va insonparvar jamiyat barpo etilishiga yordam beradigan ijtimoiy omil ekanligiga ko'ra, O'DMLarda islom dini va uning huquqiy qonunlari majmui-shariatga oid ko'rsatmalar rasmiy matnlarga xos uslubda berilgan».[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bir matnga xos bo'lgan birlikning boshqa bir matnda uslub talabi bilan qo'llanilishini inkor qilib bo'lmaydi. Ma'lum sohaga oid og'zaki turi mavjudligi kabi xususiyatlar **ilmiy matn**da yaqqol o'z aksini topsa, qisqalik, lo'ndalik, qolip shakliga tushib qolgan so'z va jumalarning mavjudligi, fikrlarning quruq, rasmiy, qonuniy kuchga egaligi kabi jihatlar **rasmiy matn**da yetakchilik qiladi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning mavjudligi, ifodalangan har bir fikr yakka shaxs, ya'ni so'zlovchi yoki muallifning emas, balki jamiyat hayoti bilan bog'liqligi **publitsistik matnlarning** til birliklarini qamrab olish doirasini belgilaydi. Adabiy til, undagi leksik, grammatik vositalar, ifoda-tasvir vositalardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi **badiiy matnning** o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

DM va badiiy matn. Yuqorida keltirgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, diniy matnlar boshqa matnlar bilan chambarchas bog'liq. DMLar Qur'on va islom dini g'oyalari targ'ib qilishi, Rasululloh (alayhissalom) hayoti va faoliyati bilan bog'liq holatlarni, ibratli ko'rsatmalarni tasvirlashda **badiiy uslub** talab va qoidalariga amal qilishi jihatidan unda badiiy matnga xos bo'lgan unsurlar namoyon bo'ladi. Bunday hollarda diniy matnlarda tilning ta'sir etish vazifasi yetakchilik qilib, badiiy uslubga xos bo'lgan leksik birliklar, badiiy tasvir vositalari diniy tushunchalar mohiyatini ochib berishda muhim o'rin tutadi.

DM va ilmiy matn. Inson va olam, olamning yaralishi va u bilan bog'liq hodisalarni insonning idrok etishi moddiyunchilikdan farq qiluvchi o'ziga xos diniy-falsafiy ruhda ekanligiga, mazkur masalalarga ham shu nuqtai nazardan yondashilishi va tushuntirilishga ko'ra u ilmiy matnlarga o'xshab ketadi.

DM va publitsistik matn. Kishilarning eng muhim hayotiy muammolarini din nuqtai nazaridan tushuntirishi, jamiyatni din g'oyalari asosida ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashni ko'zda tutishiga ko'ra diniy matnlar **publitsistik uslubga** yaqinlashadi.

DM va rasmiy matn. Sharoitga xos masalalar bo'yicha fikrlarning aniq, tushunarli, qat'iy tarzda ifodalanishida **rasmiy matnlarga** xos uslubning ta'siri sezilib turadi.

Diniy e'tiqod va badiiy tafakkur. Islom dini g'oyalari, diniy e'tiqod asrlar davomida xalqimizning ongi shuuriga singib borgan va bu holat badiiy-ijodiy tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy va publitsistik matnlarda ham sezilib turadi.

Bu ta'sir ayniqsa, poetik asarlar tilida yaqqol ko'zga tashlanib turadi: Sen osiy, sen osiy, samovot titrar, Soliklar g'arq bo'ldi ifrot bahriga. YO rabbim, jaholat eshiklari lang, Kim uchdi iblisning o'sha makriga? (X.Abdurahmonov. «Tomirlarim osmonga tutashdi»). Xudo bo'lmoqlikka shaylandi Inson, Biroq kufr ila boylandi Inson, Farishtalar ichra hazrat edi u, Ollah rahmat-ila siylandi Inson. Rahnamolik kasbin oldiyu Iblis, Uning makridan ko'p qiynaldi Inson (A. Xudoyberdi. «Inson»)

Yuqorida keltirilgan misollarda qo'llanilgan osiy, solik, Rabb, jaholat, iblis, xudo, kufr, farishta, hazrat, Alloh, makr kabi so'zlar diniy matnlar tilida eng ko'p qo'llaniluvchi leksik birliklardir.

DU va badiiy adabiyot. O'z davrida badiiy adabiyot islomiy g'oyalarni targ'ib etishda muhim vosita bo'lgan. Shu boisdan ajdodlarimizning diniy mazmundagi ko'plab asarlari she'riy usulda yozilgan. She'riyatda diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni qo'llash an'anasi bugungi o'zbek poeziyasida ham mavjud.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu davrda diniy-tasavvufiy ruhdagi yangi she'riyat yuzaga keldi. Ayrim she'rlarda dastlab Qur'on oyatlaridan parchalar keltirilib, so'ng shu oyat mazmuniga mos keluvchi she'riy fikrlar bayon qilina boshladi. Bunda she'rda qo'llanilgan diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar muhim uslubiy vosita sifatida ishtirok etadi: Misol: Agar odamlar sizga xiyonat qilgan bo'lsalar, bas, ular ilgari Allohga ham xiyonat qilgan edilar (Anfol surasidan). Jonga tegdi bundayin yashash: Atrof to'la o'g'ri, **riyokor**.

TILSHUNOSLIK

*Ko'pi fosiq, ko'pi fohisha, Nechun qilding bularga duchor?... (O'.Said. «Iltijo»). Agar Olohd huzurida oxirat diyori — jannat boshqa odamlarsiz, faqat sizlarniki bo'lsa, u holda rostgo'y bo'lsangiz yuz o'lishini orzu qiling (Fotiha surasi). Imonimiz bozorda pullab, **Olohni** ham chiqarib yoddan. **Munofiqlar** amrini qo'llab, Parvo qilmay **do'zaxu** o'tdan (O'.Said. «Haq yo'li»). Misollarda qo'llanilgan riyokor, fosiq, imon, Alloh, munofiq, do'zax kabi so'zlar diniy tushunchalarni ifodalaydi.*

NATIJA VA MUHOKAMA

DMLar uslubi. Har bir matnni qat'iy bir tartibda, aytaylik, Alloh nomi bilan, unga va payg'ambarga hamdu sano bilan boshlash diniy matnlar uslubi uchun umumiy bo'lgan xususiyat hisoblanadi: Bismillohir rahmonir rohiym. Alhamdu lillahi taolo val iftihoti bismihi avlo va bihi nasta'iy n summa nas'a vassalotu vassalomu alo habibihi Muhammadin, sayyidul anbiyoi va alo olihi va as'hobihillazina xumul taqiyon somi'i axbo.[3] Chunon rivoyat qilibdurlarkim, Xudovandi xoliqi ayom va roziqi olam xalqni avval o'n hissa qilib yaratdi («Manba' ul-maorif») kabi.

Diniy matnlar tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, ularda bayon qilingan fikrlarning diniy nuqtai nazardan to'g'ri, shariatga mos ekanligini ko'rsatish maqsadida Qur'on oyatlaridan parchalar keltiriladi. Masalan: Hasan Basriy (rahmatullohi alayh) din «Qul kullun ya'malu ala shokiltihi»,[4] degan oyati karimning tafsirida aytibdurlarki, «alashokiltihi», ya'ni «ala niyatihidur. Ma'nosi shuldurki, amalning durust bo'lmog'i niyat birlandir. Niyat durust bo'lmasa, amal ham fosiddur. Va payg'ambar alayhissalam aytdilarki, «niyatu mo'mini xairun min amalihidur niyatihidur», ya'ni mo'min kishining yaxshi amalga qilg'on niyati beniyat qilg'on amalidin yaxshiroqdur («Manba' ul-maorif»).

DMLarning asosiy leksik xususiyatlari. Xuddi boshqa funksional uslublarda bo'lgani kabi DM uslubi ham o'z leksik xususiyatlariga ega. Ularning boshqa o'zbekcha matnlarga xos bo'lmagan o'z so'z va terminologiyasi, standart turg'un va frazeologik iboralarning mavjudligi buning dalilidir.

Ammo ularning qo'llanishida muayyan stilistik noqisliklar vujudga kelishi mumkin. Tasviriylik yo'qolib, jo'n ifodalar paydo bo'lishi mumkin. Rasmiylik, diniylik ottenkasiga putur yetishi mumkin. Ayrim so'z va iboralarning qo'llanishi DMLarda shtamp holiga kelib qolgan. Demak, DMLarda o'zbek tili umumxalq tili elementlaridan foydalanish barobarida ularning faqat o'ziga xoslangan leksik elementlar mavjudligini ta'kidlash ham to'g'ri bo'ladi.

Sohaviy terminologiya DMLar leksik tizimida asosiy o'rinda turadi. Ularda bir qadar qadimiylik, turg'unlik ottenkasi bor.

Diniy so'z va iboralarning «pasport»i qadimiy va ular DMLar leksik-frazeologik fondida muhim o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligi mustaqillik tufayli o'zining ikkinchi umrini yashay boshladi.

DMLarga xos bo'lmagan leksik xususiyatlar.

-So'zlashuv, badiiy-publitsistik uslublar uchun me'yoriy holat sanaladigan so'z va iboralarning ko'pma'noliligi DMLar uchun xos xususiyat emas.

-Til elementlarining badiiy-estetik vazifani bajarishi BMLarga xos, bu talab ularga DMLarda qo'yilmaydi.

-Polisemantizm, sinonim, paronim, omonim, antonim, neologizm, istorizm, arxaizm va jargon singari bir qator semantik-stilistik hodisalar haqida DMLar misolida gapirib bo'lmaydi.

- So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash DMning muhim xususiyatlaridan sanalmaydi.

-O'zbek tili FBlari [5] DMLar doirasida chegaralangan. Ular asosan diniy-teologik xarakterga ega.

-Shu paytga qadar diniy so'z va iboralar tilimiz lug'at fonidan eskirgan so'zlar sifatida o'rin olgan edi. K.Bozorboyev nomzodlik ishida so'zlashuv nutqida qo'llanib kelingan alifni kaltak demoq; tarki dunyo qilmoq; pirga qo'l bermoq; eti sizniki, suyagi bizniki; madrasa tuprog'ini yalagan; ho'kizning qulog'iga qo'biz chertmoq; eshakka yosin o'qimoq singari ayrim FBlar bugungi kunda qo'llanilmayotganini aytgan.[6] Ammo mustaqillik ularga qaytadan jon bag'ishladi.

-Dialektizmlarni qo'llash DMLar uchun umuman xos xususiyat emas.

-DMLar leksikasida betaraf so'zlar muhim o'rin tutadi. Chunki «hozirgi tilimizda betaraflik belgisi bilan yashab kelayotgan so'zlar eng qadimiy so'zlar bo'lib, xalqimiz ijtimoiy faoliyatining uzoq davrlari mahsuli hisoblanadi» (S.Karimov).

-DM so'zlari davriy xarakterga ega emas. Ular ona tilimiz lug'at boyligidagi bir qadar turg'un birliklar sanaladi.

-O'zlashgan so'zlar, jumladan, DMIlarga xoslangan so'zlarning qo'llanish imkoniyati tilimizda cheklangan. Masalan, «o'lmoq ma'nosini anglatadigan frazeologik evfemizmlar orasida faqat Chin dunyoga rihlat etmoq, Chin dunyoga ketmoq, Oyog'ini uzatmoq, largina DMIlarga xoslangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi diniy matnlar ona tilimizdagi boshqa funksional uslublar doirasidagi matnlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib, takomillashib bormoqda. Tadqiqotimiz yakunida ishonch bilan qayd etamizki, bu mazmundagi matnlar tadqiqi diniy uslubning o'zbek tili funksional uslublarining alohida ko'rinishi sifatida mavjud ekanligini ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotda e'tirof etish yo'lidagi muhim qadamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Муҳаммадиев С.* Ўзбек тили функционал стилларини белгилаш тўғрисида мулоҳазалар / Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, 4-сон, -Б.56.
2. *Улуқов Н.М.* Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол.фан.номз.дисс. ...автореф. . Тошкент, 1997, -Б.7.
3. *Йўлдошев Б.* Ўзбек фразеологияси ва фразеографиянинг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007;
4. *Йўлдошев Б.* Фразеология тарихидан лавҳалар. - Самарқанд: Сўғдиён, 1998;
5. *Йўлдошев Б.* Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал услубий хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ..дис. автореф. – Тошкент, 1993;
6. *Йўлдошев Б.* Фразеологик услубият асослари. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1998.
7. *Маматов А.Э.* Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис. ... д-ра.филол.наук. - Ташкент, 1991;
8. *Шу муаллиф.* Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991;
9. *Маматов А.* Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан. д-ри. ..дис. автореф. – Тошкент, 1999 ва бошқалар.
10. *Бозорбоев К.* Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.фан.номзод. ..дис.автореф. – Самарқанд. 2000, -Б.7